

SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGI TAMOYILINING HUQUQIY HIMOYASI: MILLIY VA XALQARO YONDASHUV

Ibrohimov Adhamjon Ibrohim o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsiy hayot daxlsizligi tamoyilining huquqiy asoslari, uning milliy qonunchilik va xalqaro huquq doirasida himoya qilinishi, zamonaviy xavf-xatarlarga nisbatan samaradorligi tahlil qilinadi. Maqsad – shaxsiy hayot daxlsizligi konsepsiyasini huquqiy jihatdan aniqlashtirish va uning amaliy himoya vositalarini ko'rsatishdan iborat. Metod sifatida qiyosiy-huquqiy tahlil va huquqiy monitoring usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijasida O'zbekiston qonunchiligi va xalqaro huquq normalarida ushbu tamoyil umumiy tan olingani, biroq uni amalda ta'minlashda ayrim bo'shliqlar mavjudligi aniqlangan. Maqola oxirida ushbu tamoyilni himoya qilish bo'yicha takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: shaxsiy hayot, daxlsizlik, maxfiylik, ma'lumotlar himoyasi, inson huquqlari, konstitutsiya.

KIRISH

Inson sha'ni, qadr-qimmati va daxlsiz huquqlari — har qanday demokratik huquqiy davlatning konstitutsiyaviy ustunidir. Shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash esa bu huquqlarning asosi, poydevori hisoblanadi. Ma'rifatparvar olim Abu Nasr Forobiy o'z asarlarida insonning ruhiy osoyishtaligi va ichki erkinligini jamiyatdagi adolatli tartibning negizi sifatida e'tirof etgan. U insoniy taraqqiyotga olib boruvchi yo'lni "ahloqiy komillik va huquqiy uyg'unlik" bilan bog'laydi. Bugungi kunda esa ushbu qadriyat — shaxsiy hayot daxlsizligi — zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi, axborot oqimining erkinligi va ijtimoiy tarmoqlarning ommaviylashuvi fonida o'ziga xos muammolarga duch kelmoqda. Shaxsiy hayot faqatgina shaxsiy makon emas, balki insonning shaxsiy yozishmalari, telefon suhbatlari, joylashuv ma'lumotlari, suratlari, ovozli yoki videomateriallari, sog'lig'i, moliyaviy holati va boshqa maxfiy axborotlarini ham o'z ichiga oladi. Bu ma'lumotlarning begonalarga ruxsatsiz yetkazilishi, tarqatilishi yoki foydalanilishi — insonning sha'ni va qadr-qimmatiga zarar yetkazadigan huquqbuzarlik sifatida qaraladi. "Insonni hurmat qilmoq — uning ichki dunyosini hurmat qilishdir", degan edi faylasuf Emmanuel Kant. Bu fikr aynan shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash zarurati bilan bevosita uyg'unlashadi.

Zamonaviy raqamli muhitda odamlarning ruxsatisiz ularning shaxsiy hayotiga oid ma'lumotlarni to'plash, saqlash yoki tarqatish holatlari ko'payib bormoqda. Ayniqsa, bloggerlik faoliyati, ijtimoiy tarmoqdagi "kontent uchun hamma narsa mumkin" tamoyiliga amal qilayotgan ayrim shaxslar, hatto muqaddas qadriyatlar hisoblangan oilaviy, shaxsiy sirlar va farzandlar hayotiga ham tajovuz qilmoqda. Bu holatlar nafaqat axloqiy me'yorlarga, balki O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va amaldagi qonunchilik talablariga ham zid hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasida har bir shaxsning shaxsiy hayoti, sha'ni va qadr-qimmatini daxlsiz ekani mustahkamlab qo'yilgan.

Maqola aynan ushbu dolzarb muammoga bag'ishlangan bo'lib, uning asosiy maqsadi – shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining mohiyatini huquqiy tahlil qilish, milliy va xalqaro huquq normalaridagi yondashuvlarni solishtirish, shuningdek, ijtimoiy hayotda uchrayotgan amaliy muammolarni aniqlab, ularning yechimlariga ilmiy asoslangan takliflar berishdan iboratdir. Ushbu mavzu, ayniqsa, huquqshunos olimlar, amaliyotdagi yuristlar, sudyalari, advokatlar, jurnalistlar, pedagoglar hamda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari uchun alohida ahamiyatga ega bo'lib, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, inson sha'nini hurmat qilish tamoyillarini chuqur qaror toptirishga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Shaxsiy hayot daxlsizligi g'oyasi insoniyat taraqqiyoti bilan birga yetishib chiqqan qadriyatlardan biridir. U faqat huquqiy norma emas, balki axloqiy va ma'naviy tamoyil, inson sha'ni va hurmatining ifodasidir. Bugungi global axborot asrida ushbu huquq tobora ko'proq sinov ostida qolmoqda. Internet, sun'iy intellekt, videokuzatuv tizimlari va ijtimoiy tarmoqlar taraqqiyoti shaxsiy hayotga oid axborotlar doimiy ravishda yig'ilishiga va tarqalishiga sabab bo'lmoqda.

Shaxsiy hayotga oid huquqning buzilishi ko'pincha sezilmas va surunkali kechadi. Odamlar o'zlarining fotosuratlarini, yozishmalari, manzillari yoki shaxsiy qarorlariga oid ma'lumotlar qanday qilib uchinchi shaxslarga yetib borayotganini ko'pincha anglab ham yetmaydi. Holbuki, bu kabi ma'lumotlarning ruxsatsiz yig'ilishi va foydalanilishi – inson erkinligiga suqulib kirishdir. Bunday holatlarni ilgari asosan diktatura rejimlari uchun xos deb hisoblagan bo'lsak, bugungi raqamli demokratik jamiyatlarda ham bunday xatarlar mavjud.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasida, "Hech kim o'zboshimchalik bilan shaxsiy hayotiga, oilasiga, uyiga yoki yozishmalariga aralashilmasligi kerak", deyilgan. Bu prinsip Yevropa Inson huquqlari konvensiyasining 8-moddasida ham o'z ifodasini topgan. Shuningdek, BMTning

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakti ham shaxsiy hayotga aralashuvga qarshi qat'iy pozitsiyani bildiradi.

Xalqaro miqyosda ushbu huquqni eng yuqori bosqichda himoya qiluvchi mexanizmlardan biri bu — Yevropa Ittifoqining Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish reglamenti (GDPR) hisoblanadi. Bu hujjatga muvofiq, shaxsiy ma'lumotlarni yig'uvchi har bir tashkilot (xususan, internet platformalari) foydalanuvchining aniq va ongli roziligini olishi, shuningdek, istalgan vaqtda bu rozilikni qaytarib olish huquqini kafolatlashi kerak. GDPR ma'lumot egasini "data subject", ya'ni ma'lumotning subyekti deb ataydi va uni har qanday tahlil, reklama, yoki avtomatlashtirilgan qaror qabul qilishdan himoya qiladi. Bunaqangi mexanizmlar judayam foydalidir.

O'zbekiston Respublikasida ham shaxsiy hayot daxlsizligi konstitutsiyaviy darajada kafolatlangan. Konstitutsiyaning 27-moddasiga ko'ra, har bir shaxsning shaxsiy hayoti, yozishmalari, telefon orqali suhbatlari, pochta va boshqa xabarlar daxlsizdir. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 141-moddasida ushbu huquqni buzgan shaxslar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Shu bilan birga, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun ham fuqarolarning ma'lumotlari bilan ishlashda shaffoflik va ruxsat prinsiplarini mustahkamlagan.

Shu o'rinda Germaniya tajribasiga e'tibor qaratish o'rinlidir. Bu mamlakatda shaxsiy hayot daxlsizligi fuqarolik huquqlarining asosi sifatida qaraladi. 1983 yilda Germaniya Konstitutsion sudi tomonidan qabul qilingan "Ma'lumotlar ustidan shaxsiy nazorat huquqi" konsepsiyasi bu boradagi muhim huquqiy me'yor sifatida tarixga kirdi. Bu yondashuvga ko'ra, har bir fuqaro o'z shaxsiy ma'lumotlari ustidan to'liq nazoratga ega bo'lishi kerak. Ya'ni, Bu fikr "axborotga oid o'zini o'zi belgilash huquqi" (nem. informationelle Selbstbestimmung) degan tushunchaga asoslanadi. U shuni anglatadi: Har bir inson kim haqida qanday ma'lumot yig'ilayotgani, qayerda saqlanayotgani, va nima maqsadda foydalanilayotgani haqida bilishga va bu jarayonni boshqarishga haqli.

Masalan: Sizdan familiya, manzil yoki ish joyingiz haqida ma'lumot so'rashsa – siz bunga rozilik berishingiz kerak. Agar siz istamasangiz, hech kim siz haqingizda ortiqcha yoki shaxsiy ma'lumotni to'play olmaydi. Agar ma'lumotlar noto'g'ri yoki keraksiz bo'lsa, siz ularni to'g'rilash yoki o'chirib tashlashni talab qilish huquqiga egasiz. Nima uchun bu muhim? Chunki shaxsiy ma'lumotlar orqali odamning hayoti, qarashlari, sog'lig'i, moliyaviy holati, hattoki siyosiy fikrlari haqida ham xulosa chiqarish mumkin. Agar bu ma'lumotlar nazoratsiz qolsa, u holda:

- 1) Inson daxlsizligi buziladi;
- 2) Shaxs ustidan yashirin nazorat yoki bosim bo'lishi mumkin.

Shuning uchun, bu yondashuv insonning erkinligi, qadr-qimmatini va huquqlarini himoya qilish uchun juda muhimdir.

Shuningdek, shaxsiy hayot daxlsizligini buzish holatlari jamiyatda ruhiy zo'riqish, ishonchsizlik va ijtimoiy beqarorlikka olib kelishi mumkin. Masalan, AQShda olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, internetdagi doimiy kuzatuvlar fuqarolarning so'z erkinligi va o'z fikrini erkin ifoda etishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Odamlar har bir yozgan gapi, post qilgan suratidan keyin xavotirda yashay boshlagan. Asosiy sabab esa, shaxsiy daxlsizlikka bo'lga tajovuz. Barchamizga ma'lumki internet ochiq ma'lumotlar bazasi bunda har kimning shaxsiy ma'lumotlari tarqalib yotibdi. Bunaqa holatda, Kuchli hakkerlar tizimlarni buzib kirib shaxsiy ma'lumotlarga ega chiqishi mumkin.

XULOSA

Shaxsiy hayot daxlsizligi bugungi raqamli davrda nafaqat huquqiy, balki axloqiy, psixologik va sotsial muammoga aylanib bormoqda. Maqola davomida tahlil qilingan qonuniy asoslar, xalqaro tajribalar va milliy qonunchilik shuni ko'rsatadiki, insonning shaxsiy axboroti ustidan nazoratga ega bo'lish huquqi – zamonaviy huquqiy davlatning ajralmas elementi hisoblanadi. Yevropa Ittifoqining GDPR normalari, Germaniyaning konstitutsiyaviy yondashuvi va BMTning asosiy hujjatlarida bayon etilgan prinsiplardan kelib chiqib, O'zbekiston qonunchiligi ham bu borada jiddiy qadamlar tashlaganini e'tirof etish mumkin. Biroq amaliyotda qonunlarning to'liq ishlashi, ularning texnologik taraqqiyot bilan hamnafas bo'lishi, jamoatchilik ongi va ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash borasida yana ko'plab ishlar qilinishi lozim. Ayniqsa, shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlaydigan tashkilotlarning javobgarligini kuchaytirish, fuqaroning roziligi va ma'lumot ustidan nazorat huquqini kafolatlash eng muhim vazifalardan biridir.

Shu boisdan, Xalqaro va milliy qonunchiliklarni tahlil qilish orqali quyidagi takliflarni ilgari surdim:

Birinchi taklif, Raqamli xavfsizlik va fuqarolarning shaxsiy hayotini himoya qilishni amaliy bosqichga olib chiqish uchun, davlat miqyosida yagona Shaxsiy ma'lumotlar reestri va monitoring tizimini joriy etish zarur. Ushbu tizim orqali har bir fuqaro o'z shaxsiy ma'lumotlarining kim tomonidan, qachon va qanday maqsadda ishlatilayotganini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu tizim barcha davlat idoralari, tibbiy muassasalar, banklar, ta'lim tashkilotlari va xususiy kompaniyalar bilan integratsiyalashgan bo'lib, fuqarolarning rozilgisiz hech qanday axborot almashinuvi sodir bo'lmasligini kafolatlaydi. Ushbu mexanizmni joriy etish natijasida shaxsiy hayot daxlsizligiga doir qonunbuzarliklar keskin kamayadi, axborot bilan ishlaydigan muassasalarning javobgarlik darajasi oshadi, eng asosiysi esa, fuqarolarning o'z ma'lumotlari ustidan real nazoratga ega

bo'lishi ta'minlanadi. Bu esa o'z navbatida jamiyatda huquqiy ishonch, ijtimoiy xavfsizlik va davlatga nisbatan ishonch muhitini mustahkamlaydi.

Ikkinchi taklif, fuqarolarning axborot xavfsizligi va shaxsiy hayotni himoya qilish madaniyatini shakllantirish uchun barcha ta'lim bosqichlari va sohalar bo'yicha maxsus o'quv dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur. Bu dasturlar orqali maktab o'quvchilari, talaba-yoshlar, davlat xizmatchilari, ommaviy axborot vositalari vakillari hamda blogerlar o'z huquqlari, majburiyatlari va axborot bilan ishlashda ehtiyot choralari haqida tizimli bilimga ega bo'ladilar. O'quv kurslari orqali ularning raqamli savodxonligi, ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy xavfsizlikni ta'minlash, ma'lumotlar rozilik asosida ishlatilishi kabi dolzarb masalalarda bilim va ko'nikmalari mustahkamlanadi. Natijada, shaxsiy hayotni buzishga oid huquqbuzarliklar nafaqat huquqiy, balki madaniy va axloqiy jihatdan ham cheklanadi. Fuqaroning shaxsiy daxlsizligini hurmat qilish odatiy norma sifatida jamiyat hayotiga singdiriladi.

Mazkur ikki taklifning joriy etilishi nafaqat qonunchilikda belgilangan huquqlarni amalda ta'minlaydi, balki inson sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishda davlat va jamiyatning muvozanatli, mas'uliyatli yondashuvini mustahkamlovchi asosiy vositaga aylanishi mumkin. Va, shaxsiy hayot daxlsizligi – inson sha'ni va erkinligining o'zagi, jamiyatda ishonch va adolat muhitini shakllantiruvchi huquq ekanligini anglab yetishadi. Uning to'liq va samarali himoyasi – faqat qonunlarda emas, balki har bir shaxsning ongida va madaniyatida mustahkam o'rnashgan holatga aylanishi lozim. Maqolada keltirilgan tavsiyalar va tahlillar ushbu muammoni yechish yo'lidagi kichik, ammo muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Fozil odamlar shahri" - Abu Nasr Forobiy
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (<https://lex.uz/uz/docs/-6445145>)
3. Pew Research Center Report, "Americans and Privacy", 2019
4. Universal Declaration of Human Rights, 1948 (Article 12)
5. European Convention on Human Rights, 1950 (Article 8)
6. International Covenant on Civil and Political Rights, 1966 (Article 17)
7. General Data Protection Regulation (GDPR), Regulation (EU)
8. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi (<https://lex.uz/docs/111453>)
9. O'zbekiston Respublikasi Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonuni (<https://lex.uz/docs/-4396419>)
10. Volkszählungsurteil, German Federal Constitutional Court, 1983